

ROMANLARDA OBRAZ YARATISH MASALALARI HAQIDA

(K.Muhammadrizovning "Maxtumsuli", T.Taganovning "Maxtumsuli", U.Nepesovning "Firog'iy" tarixiy romanlari misolida)

Bayniyazov Azatbay Tursinbaevich

Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti o'qituvchisi

Nukus, Qoraqalpog'iston

azatbayniyazov2021@gmail.com

+998977887398

АННОТАЦИЯ:

В данной статье рассматривается образ воссоздания великого поэта Махтумкули Фираги, на примерах исторических романов узбекского писателя К.Мухаммадризо "Махтумкули" и туркменских писателя Т.Таганова "Махтумкули", У.Непесова "Фираги".

ABSTRACT:

In this article, the creation of the image of the famous character Makhtumkuli Pyragyi and the problems of the development of historical truth are discussed in comparison with the examples of the historical novels "Makhtumkuli" by an Uzbek writer K. Muhammadrizov and "Makhtumkuli" by the Turkmen writers T. Taganov, "Pyragyi" by O. Nepesov.

Ключевые слова: исторический роман, образ, реальность жизни, исторические события, сравнительный анализ

Key words: historical novel, image, reality of life, historical events, comparative analysis

Tarixiy va badiiy adabiyotlarning o'zaro bog'liqligi, hayot haqiqatning badiiy adabiyotda aks ettirilishi, tarixiy shaxslarning obrazlari yaratilishining nozik masalalarini jahon adabiyotidagi ilg'or tajribalar, yangi ilmiy-nazariy kontseptsiyalar ustida muhokama qilishga zarurat borligini ko'rsatadi. Ushbu nuqtai nazardan turkiy xalqlar adabiyotida, shu jumladan, o'zbek va turkiy proza asarlarida tarixiy shaxslarning tasvirlari tarixiy haqiqatni aks ettiradigan yozuvchilarning



to'g'ri ijodiy izlanishlari, ular orasida tipologik o'xshashliklarning o'ziga xosligi, badiiy tasavvurni aniqlash va tarixiy adabiyotning o'ziga xosligi yangi ilmiy-nazariy natijalarni beradi. Shunday qilib, biz ushbu maqolada o'zbek, yozuvchisi Q.Muhammadrizoning "Maxtumquli" va T.Taganovning "Maxtumquli" U.Nepesovning "Firog'iy" tarixiy romanlarida mashhur shaxs bo'lgan Maxtumquli obrazi va tarixiy haqiqatning tasvirlanishi bilan bog'liq masalalarni taqqoslashga harakat qilamiz.

Turkman yozuvchisi T.Taganovning "Maxtumquli" romani madaniy-tarixiy mavzuda yozilgan bo'lib, unda turkman xalqi ustiga bosqinchilik qilayotgan tashqi dushmanlarga qarshi kurashda qatnashgan shoir shaxs Maxtumquli obrazi yaratilgan. Ammo, muallif romanda Maxtumquli obrazini yaratishni maromiga yetkaza olmagan. Romanda tarixiy hodisalar Maxtumqulining yoshlik yillari, qahramonning temir ustasi bo'lib ishlaganligi, Maxtumqulini Muhammadxonning oldiga chaqirganligi uchun qamoqqa tushganligi va uni o'z qishloqdoshlari qutqarishi epizodlari kabi voqealar asarning birinchi qismini tashkil qilgan.

Shuningdek, taniqli turkman yozuvchisi U.Nepesovning "Firog'iy" romanida ham Maxtumquli tasvirlangan bo'lib, unda u bosh qahramon obrazini yaratishda va tarixiy voqealarni gavdalantirishda xalq afsonalari bilan bir qatorda, ko'proq ilmiy manbalarga asoslanganligi kuzatiladi. Shunday qilib, bosh qahramon Maxtumqulning hayoti haqidagi badiiy hikoyalar hayot haqiqatiga juda yaqin tasvirlangan. Muallif asarda kurash va janglarda bosh qahramon Maxtumqulning qo'liga qurol olganini ko'rsatadi. Uning hikoyalarini ilmiy va tarixiy ma'lumotlar bilan taqqoslaganda, ushbu muallifning ko'proq fantaziyaga moyil tasvirlagani ko'zga tashlanadi. Bu haqida taniqli olim M.Tuvakovning aytib o'tgani kabi "O'Nepesovning "Firog'iy" romanida Maxtumqulining janglarga qo'liga qurol olib qatnashishi ishonchsiz. U dono-ilmli olim sifatida ko'rsatilganda o'rinli bo'lar edi. Sababi, u janglarga qatnashmasa ham, o'zining she'rlari bilan botir, mardona yigitlarni Vatanparvarlikka chaqira oladi" [1,14].

Ulug' shoir Maxtumquli obrazi o'zbek yozuvchisi Q.Muhammadrizoning "Maxtumquli" romanida ham keng tasvirlangan. Romanda Eron podshosi Nodirshox adolatsiz sifatida tasvirlangansa, Elbarsxon esa adolatli podsho sifatida tasvirlanadi. Asarning "Dor ostida" qismida esa Maxtumqulining tarixiy voqealar oralig'ida bo'lganligi, Buxoro amirining bir necha mardona yigitlarni dorga osib o'ldirish



voqealarida O'zbekboyni o'ldirmoqchi bo'lganida Maxtumqulining Dor maydoniga o'zini tashlagan epizodlari ta'sirli tasvirlangan.

“Amir Muhammad Rahim, avvalo, qatl marosimida qatnashgisi yo‘q edi. Biroq, siyosat ishiga bo‘lar-bo‘lmas burun tiqib aralashaveradigan amakisi Doniyolbiyning xarxashasi bilan bunda kelganiga ming pushaymon bo‘ldi va shu gun uni jinidan ham batdar yomon ko‘rib ketdi.

Maydon voqeasi uni butunlay aqldan ozdirayozdi. Doniyolbiy esa, avvalo, qatl qilingan bandning bola-chaqalari va xotining faryodini bir oz tomosha qilib turdi, keyin ularni oradan tezda surib chiqarib yuborishlarini sarbozlarga buyurdi.

Sarbozlar yetib keldilaru “kelgindilar”ni bir zumda maydondan qon-qaqshatib, “supurib-sidirib” g‘oyib qilishdi.

Olomon junbisha keldi. Maxtumquli chiday olmay, ikki-uch marotaba maydonga otilmoqqa shaylanganida Mujrim Obid uni tutib-to‘xtatib qoldi” [2,172].

Yana romanda tarixiy voqealar tasvirlangan o‘rinlardan biri:

“Navbat ikkinchi mahbusga kelganda, Maxtumquli belidagi xanjarini mahkam tutib, hamlaga tayyorlanayotgan yo‘lbarsday, ko‘zlari olovlanib hujumga tayyor turdi.

O‘zbekboyning bo‘yniga sirtmoqni ildilar. Shu payt tasodif ro‘y berdi. Maxtumqulining yuragi xapriqib joyidan chiqib ketdi:

-Tamom, endi qatl qilishlari aniq! – dedi u va o‘zini butunlay yo‘qotib, oqibatini o‘ylab-netib o'tirmay maydonga o‘qday otilib, zum o‘tmay quyunday o‘rtada paydo bo‘ldi... Bu tasodifdan hayron bo‘lib qolgan Mujrim Obid, hamrohini bu gal tutib qolishga ulgurolmay qoldi. Endi kech edi. Amir va uning atrofida gilar – bari, qutilmagan voqeadan hayratlanib, arslonday huruj bilan ko'z nashtarlarini arkoni davlatga o‘qdek qaratib turgan yigitga nafrat bilan tikilishdi. Qushbegi yonidagi alp navkarlardan biriga ishora qildi. Navkar ovchining tozisiday “o‘lja” tomon shoshdi. Uning chopib kelayotganini ko'rgan Maxtumquli xanjarini qinidan chiqarib, turkmanchalab:

- Çekil! Năme geler ölseñem kellăni pyzlawuk kădi ýaly bedeniñden juda edip goyberjek. Dur entek, ähli musulman meni diñlesin!

Navkar qushbegiga qaradi, qushbegi amirga qaradi. Amir esa, qo‘l ishorasi bilan “To‘xtang, tegmangiz!” degan ma'noni bildirdi. Qushbegi ham o‘zlari tushunadigan ishora bilan navrkarni to‘xtatdi” [2,174].



Ushbu epizodlarda Maxtumquli dordagi aybsiz kishini ozod qilish uchun o'z jonini ham ayamaydi, Muhammad Rahim shoirga qahr g'azab bilan qaraydi, lekin Maxtumquli qo'rqmay, ularga qarab, o'z she'rini aytadi. Zamonda adolat yo'qligi, xalqning faryodini eshitadigan Amirning yo'qligi haqida noliydi.

Yuqoridagi romanlarda bosh qahramon Maxtumquli shoir bo'lsa-da, hayotda bo'layotgan siyosiy-tarixiy voqealarga tengdoshlari bilan birga, xalq uchun jonini fido qiladigan qahramon sifatida tasvirlanadi. Shunday bo'lsa ham, romanlarda tarixiy voqealarning muallif tomonidan ishonchsiz ko'rinishida tasvirlanganligi ba'zi o'rinlarda ko'rinadi.

Umumiy qilib aytganda, izlanish obyektiga olingan yozuvchilarning romanlarida, shoir shaxs Maxtumquli obrazini yaratishda har bir muallif o'ziga xos ijodiy munosabatda yondoshganligi ko'zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tuwakow M. Garaşsyzlyk döwründäki türkmen romanlarynyň poetikasy (çeperçiligi). Dokt. diss. Awtoreferaty. – Aşgabat, 2024. – B.14.
2. Qurbon Muhammadrizo. Maxtumquli. Tariyxiy roman. – Toshkent: Chashma print, 2012. –B. 172.

